

“Sab’ayi Sayyor” Va “Haft Paykar”: Dostonlarda Mavzu Va G’Oya

Fayzullayev Zavqiyjon Qobiljon o'g'li¹

Anatatsiya: Mazkur maqolada “Xamsa” turkumiga mansub asarlardan Alisher Navoiyning “Xamsa”si tarkibidagi “Sab’ayi sayyor” hamda Nizomiy Ganjaviyning “Panj ganj”i tarkibiga kiruvchi “Haft paykar” dostonlari haqida fikr yuritilgan. Maqolada, asosan, dostonlarning mavzu va g’oyasi haqida umumiy tushuncha berib borilgan.

Nizomiy “Haft paykar”ning 4-bobida kitob yozilishining sababi haqida fikr yuritgan. Unda Podshoh Aloiddin Karp Arslonning shoirmi huzuriga chaqirishi va unga bir asar yozishni buyurganligini, undan so`ng shoirmi qiynab yurgan g`am shodlikka aylanganligini ta`kidlaydi:

Izladim nomalardin nag`znavard,
Ul ne dilni kushoda bilgay dard.
Har ne ta`rixi shahriyorlardur,
Bir nomada unga ixtiyorlardur.
Chobukandeshye yetib naxust,
Barini nazm etgan erdi durust...
Ulki yarmin aytgandi, aytdimki chun,
Yarim teshik durini teshdim butun...
Nihon nomalardin izlodim yona,
Ki parokanda edi girdi jahona...
Aytganimna aytdim pisand bildilar,
Ziyrak bo`lmaganlar kulgi qildilar.

Shundan so`ng shoir bu kitobni yetti go`zal (arus) bilan jilvalantirdim, garchi so`zlashda qusurim bordir, ammo ma`noda tamom tadbirliman, ushbu darxtning (dostonning) mevasini mo`l qilib to`kkin, yaxshilik bo`lib saodatli bo`l, deydi o`ziga.

Nizomiy dostonida Bahromning siyosiy, ijtimoiy tomonlariga juda katta o`rin ajratgan. Yuqorida ta`kidlaganimizdek, Navoiy tomonidan tanqid qilingani ham shundan. Bahromning kanizagi bilan bo`lgan voqea ham katta ahamiyatga ega emasdek tuyuladi o`quvchiga. Navoiy esa Bahrom va Dilorom hikoyatini asosiy hikoyat qilib olgan. Nizomiyning dostonni yozishdan maqsadi Bahromshoh tarixini yoritish bo`lsa, Navoiy bu dostonni Husayn Boyqaroga bag`ishlab, Bahrom tomonidan unga nasihatini keltirishi ham bejizga emas.

Nizomiy dostonidagi voqealar birmuncha romantik xarakterda bo`lishiga qaramay (ajdahoning o`ldirilishi bilan bog`liq voqealar), Bahromshoh podshoh sifatida judayam yorqin tasvirlangan. Uning xalq va davlat oldidagi burchlarini tilga oladi. Podshohning qanday bo`lishi zarurligi haqidagi fikrlarni ta`kidlaydi. Ammo Nizomiy Bahromni ideallashtiradi. Qusurli jihatlarini ham xislat sifatida ko`rsatishga harakat qiladi. Bir so`z bilan aytganda, judayam ayagan, yonini olgan, har qanday ishini oqlaydi. Hattoki ichilikka berilgan paytdagi voqealarda ham Bahrom lashkarboshilariga aytgan fikrlarda bu yaqqol yuzaga chiqqan:

Bulut yog`ar payti chaqmoqdirman, hay,
Bir qo`limda tig`-u bir qo`limda may.
May ichib agarda yashnatsam bazm,
Tig`imni ham ishga solgum bo`azm.
Baski boda birla fikr-u roy etay,
Qaysarning tojini zer-u poy etay.
Do`stlarim-la may ichib bo`kay,
Ganji Qorunni yengimdan to`kay²

1

Uning otasi adolatsiz, davlatni bajara olmagan podshoh bo`lishiga qaramay, o`g`li adolatli, davlatni tartib bilan boshqargan podshoh sifatida tasvirlanadi. Bu motiv Navoiy dostonida ham ko`rinadi:

Qaysi javharki, yo`q bahosi aning,
Kon ano, tog` erur anosi aning.
Necha xorog`a shiddat o`lsa ayon,
Andin o`lmas javohirig`a ziyon.
Odami hamki keldi javhari pok,
To bilur kimki aylasa idrok.
Ota dunu o`g`ul sharif o`lmoq,
Bu latif o`lmoq, ul kasif o`lmoq.
Kim Xalilulloh Ozar o`g`lidur,
Butshikan, ko`rki, butgar o`g`lidur.
Bu sifat keldi nisbat ichra tamom,
Tavr aro Yazdajurd ila Bahrom³.

Bu o`rinda har ikkala shoir ham otaning gunohiga o`g`il javob bermasligi, ota adolatsiz, o`g`il adolatli bo`lishi mumkinligi, otaning ayblarini yopuvchi bo`lishi mumkinligini uqtirgan.

Dostonlardagi asosiy hikoyatlarda tez qaror qabul qilmaslik, may ta`sirida g`azabga erk bermaslik, o`ylab ish tutishga chorlash, Rostravshan bilan bog`liq o`rinda yomonga yaqin yurmaslik, adolatli bo`lish, xalqni ezish davlatni parokanda bo`lishiga sababchi bo`lishi mumkinligi kabi mavzular qalamga olingan.

Yetti go`zal tomonidan bir-biridan g`aroyib hikoyalar beriladi. Ularda ham mavzular turlicha. Masalan, birinchi hikoyatda qora qasrda hind malikasi qarindoshlaridan eshitgan doim qora kiyimda yuradigan ayolning hikoyatini keltirgan. Ayol esa podshohning boshidan kechirganlarini so`zlab beradi. Bundagi asosiy mavzu inson doimo nimagadir intilib yashashi, intilgan narsasi sarob bo`lsa, dilgir bo`lishi, va`daga vafo, hikoyatdagi qassob misolida yegan og`iz uyalar maqoliga monandlik, qanoat qilish va kanizakning podshohga bo`lgan sadoqati haqidadir.

Qanoat haqida shoir:
Qanoatlaki, kase shod bo`lur,
To bo`lur muhtasham murod bo`lur.
Ulki orzu birla xeshlik qilar,
Oqibati faqir darveshlik qilar⁴.

Ikkinchi hikoyatda esa bir kanizak sotuvchi kampir va avlodida erkaklarga ko`ngil bergan ayollarning hammasi farzand ko`rayotganda o`lganligi uchun hech kimga ro`yxushlik bermagan kanizak va podshoh haqidagi hikoyat keltiriladi. Hikoya ichida esa Sulaymon va Bilqis haqida ham hikoya keltirilgan. Bu hikoyatda rost so`zlash, kishining ko`ngli o`zini rad etgan kishiga moyil bo`lishi kabi mavzular tilga olinadi.

“Haft paykar”ning 3-hikoyatida sabz gumbazda aytilgan Bushri haqidagi hikoyatda, har kim ham so`zamollik bilan har qanday ilmning peshvosi ekanligini pesh qilishi mumkinligi, ammo uning qilayotgan ishiga qarash zarurligi, Allohning amrisiz hech narsa sodir bo`lmasligi, maqtanchollik, yovuzlik, kibr bilan biror narsaga erishib bo`lmasligi, kimsaning moliga ko`z olaytirmaslik, omonatga xiyonat qilmaslik, qazo-yu qadarga rozilik, pokiza suvni bulg`maslik kabi mavzulardan so`z ochgan:

Ulki badmastlardek g`azablangani,
Har makr-u hiylada da`vosi ani.
Har narsaga yomon gumonga borish,
Go`zallikni tuban yomonga qorish.
Qazimoq o`zgalar uchun chuqur choh,
O`sha chohga o`zi qulashi nogoh.

² Низомий Ганжавий, “Хамса”. Тошкент: “Истиклол нури”. 2016, 361-бет

³ Alisher Navoiy, Sab`ai sayyor, G`.G`ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi. Toshkent – 2006, 50-51-betlar

⁴ Низомий Ганжавий, “Хамса”. Тошкент: “Истиклол нури”. 2016, 375-бет

Ul bo`lib chun muhit mavjzani,
Oqibatda og`zi suvga to`lgani⁵.

Yana bir o`rinda shoir insonning bilish xususiyati chegaralangani, undan ziyodini faqat Yaratgan zot bilishini ta`kidlab shunday deydi:

Qizishib o`shqirdi Bushri unga zap:
Dedi: "Haq hukmiga aytma qarshi gap"...
Adashib izlanish ijtihod emas,
G`alat o`qimak ham e`timod emas"⁶.

Bushri ta`magir bo`lmagani uchun, Tangrining qadariga rozi bo`lganligi uchun ko`chada ko`rgan yorning jamoliga musharraf bo`ladi:

To Xudoyim fazli rahmati ila,
Keltirdi ne shart marhamati ila,
Chun qilmadim ta`ma chu bulhavaslar,
Harami jamol-u moli kaslar.
Saodati jamoli molimdan berdi,
Na haromdan, mana halolimdan berdi⁷, - deydi u.

To`rtinchi hikoyatda esa o`rusiy viloyatda bir podshoh va uning aql-u donishda tengsiz, osmon ilmlarini ham o`rgangan qizi haqida gap boradi. U Bonuyi Hisoriy edi. Bu hikoyatdan maqsad esa ilm bilan insonning yuksalishi, har qanday ilmni o`rganishga rag`bat, donolikni ulug`lash kabilardir.

Beshinchi iqlim podshohining qizi esa Mohoni Go`shyor haqidagi g`aroyib hikoyatni aytib beradi. Unda qahramonning bir kishi tomonidan ziyofatga taklif etilgani, undan mast holda chiqib bir g`orda ilonlar-u ajdarlarni ko`rgani, undan hushdan ketgach bir ayol va erkakning ovoizidan o`ziga kelgani, ular ziyofat beruvchini dev ekanligini, xatardan qutulganini aytib, o`zlariga ergashtirib ketgani, xo`roz qichqirganda ular yo`qolib yana o`zidan ketgani, ot tuyog`i ovoizidan o`ziga kelib, otliq otiga mingashtirgani, tog`dan o`tib bir sahroga yetgani, u yerda ming devga dush kelgani, ot ham 7 boshli, 4 oyoqli, qo`shqanotli devga aylangani, xo`roz qichqirganda o`ziga kelib g`usl qilib uxlagani, bir vodiya borib qolib unda bog`bonga ma`qul kelib, bog`bon unga bog`ni bergani, bir olamga tushishi unda kim savol bermasin javob bermasligi, savol ham bermasligini tayinlagani voqealarini ko`rishimiz mumkin. Mohon keksa kishining bu gapiga quloq solmasdan ko`zlariga ko`ringan go`zallar bilan gaplashadi. Shunda dildorlik qilayotgan go`zal sigir shaklli to`ng`iz tishli bir devga aylanadi. Shoir uni dev emas, balki Ahriman deydi.

Yoshlarning keksalarning gaplariga quloq solmasligi, toki boshiga tushib, oyog`i toyib, bir gunohga botguncha o`ziga kelmasligi haqida shunday deydi:

Ulki yoshligidan bo`lgandi asir,
Yodiga kelmadi pandi dono pir.
Yoshning qalbiga shavq agar o`t solar,
Pirlar pandin qachon yodiga olar⁸.

Bu hikoyatdagi mavzu va g`oyaga kelsak, shoirning buyuk dunyoqarashi bo`y ko`rsatgan. Ya`ni biz istayotgan, ko`zimizga surtayotgan, yuragimizga kirib, hayotimizni izdan chiqarayotgan, bebaho deb hisoblayotgan DUNYO aslida Ahriman devdir, ajdardir:

O`zicha derdiki, bu ajab ishdir,
Bu nimaga bog`liq, ne aylanishdir.
Kecha ko`rmak yashnagan bo`stone,
Bugun ko`rmak mashaqqatistone?
Gul ko`rinish bizga-yu xor ne edi,
Hosili bog`i ro`zg`or ne edi.

⁵ Низомий Ганжавий, "Хамса". Тошкент: "Истиклол нури". 2016, 389-бет

⁶ Низомий Ганжавий, "Хамса". Тошкент: "Истиклол нури". 2016, 387-бет

⁷ Низомий Ганжавий, "Хамса". Тошкент: "Истиклол нури". 2016, 390-бет

⁸ Низомий Ганжавий, "Хамса". Тошкент: "Истиклол нури". 2016, 405-бет

Ogohlik nadurki har balomiz bor,
Mohning niqobida ajdahomiz bor⁹.

Shoir shu o`rinda vaqtida ko`zni ochish, Yaratganga qaytish, poklanish zarur, degan fikrlarni beradi:

“Ey Sen, mushkulimni yechib bu fursat,
Ey menga Haq rost, yo`limni ko`rsat.
To ishimdan mushkul yechilsin-u bas,
To Senga yuzlanay, na bag`ayri kas.
Na menga rahnamoyi tanhosan,
Kim bo`lmasin u-ki, sen rahnamosan”¹⁰.

Hikoyat so`ngida Mohonning iltijolari Yaratgan dargohida qabul bo`lib unga Xizr a.s. duch kelgani va manziliga yetkazilgani haqida fikr boradi.

Oltinchi iqlim podshohining qizi esa Xayr va Sharr haqidagi hikoyat bilan shohning ko`nglini oladi. Bunda yaxshilik ham, yomonlik ham, albatta, qaytishi, yomonlik ayovsiz jazolanishi, yaxshi kishi atrofda odamlar hayotini ham yoritishi kabi mavzular tilga olinadi.

Bu mavzu “Sab`ai sayyor”ning bir qancha hikoyatlarida tilga olinadi. Xuddi shunday ikki hamroh haqidagi 6-iqlimdan kelgan musofir tomonidan aytilgan “Muqbil va Mudbir” haqidagi hikoyatda ham yaxshilikning, albatta, yuzaga chiqishi, yomonlik sharmandalikka olib kelishi, yolg`onchi oxiri umrining so`ngida azobda qolishi haqida ibratli fikrlar bildiriladi.

Bundan tashqari, Navoiy dostonida 1-Axiy va Farrux haqidagi hikoyatda Axiy saxovatda tengsizligi, hattoki do`sti sevib qolganini bilib o`z xotinini unga nikohlab bergani haqida so`z boradi. Farrux uylangach, Axiyning mardligidan hayratga tushadi, ayolni o`ziga singil kabi tutadi va do`stini izlaydi. Axiy esa Hind mulkiga borib qoladi, shu yerda ikki do`st topishadi, Farrux singlim deya Axiyning o`z ayolini katta to`y bilan nikohlab beradi. Shu tariqa ular chin do`st sifatida, bir-biridan yordam va mehrini ayamay uzoq umr kechiradilar. Keyingi hikoyatda esa ikki sadoqatli do`stning boshidan kechirganlari haqida so`z boradi. Undagi mavzu ham yuqoridagiga yaqin. Hikoyatda yaxshilik, saxovat insonning eng yaxshi fazilatlaridan ekanligi aytiladi. Unga ko`ra Bahrom shoh Juna va uning do`sti Mas`ud haqidagi qissani tinglaydi. Roviy shohga Dehlida sultonlik qilgan Junaning saxovati cheksiz ekanligini hikoya qilish bilan o`z qissasini boshlaydi. Sulton Juna shu qadar saxovatli bo`lib, uning saxiyligi chegara bilmadi. Bir kuni bir musofir uning mehmoni bo`lib, bir ko`zgu sovg`a qiladi. Ko`zgu rost gapirgan odamning yuzini oq, yolg`onchining yuzini qora ko`rsatar edi. Shoh Juna musofirni siylab, undan mendan ham o`tadigan saxiy bormi, deya so`raydi. Yo`q, deb javob bergan sayyohning yuzi ko`zguda qora bo`lib, ko`rinadi. Nihoyat uyalib, sizdan ham saxiyoq odam bor, bu go`zal Taroz o`lkasida yashovchi Mas`uddir, deydi. Shoh esa hammaga ruxsat berib, payt topib, Tarozga jo`naydi. U yerda Mas`ud bilan uchrashib, do`st tutinadi. Mas`udning fasohatidan hayratda qoladi. Mas`ud unga o`zi uchun eng aziz bo`lgan nimaiki bo`lsa, hammasini ikkilanmay hadya qilib yuboradi: sevimli, kuy va qo`shiqda mohir kanizagini, mayi tugamaydigan jomini, Gulgun laqabli otini. Taroz hokimi Jaypur uni hokim qilinganini eshitib bezovta bo`lib, Mas`udni zindonband qilib o`ldiga chiqaradi. Uning bir go`zal qizi bo`lib, Mas`udga oshiq edi. U Mas`ud haqida bilib qoladi va ikki sodiq kanizi yordamida uni qutqarib, davolaydi va otasining saroyidan Mas`ud bilan qochib ketadi. Ikki sevishtan yo`lda ko`p qiyinchilik bilan Dehliga borib qoladilar. Mas`ud o`zi mehmon qilgan Junaning shoh ekanini bilmadi, shuning uchun pul topish ilinjida shoh saroyiga borganda sehrli jomini, kuy chalib, qo`shiq aytayotgan kanizini, Gulgun otini ko`rib, avval hayron bo`ladi, keyin shohni ham Juna ekanini bilib qoladi. Mas`ud tanigan boshqa mahramlar bu haqda Junaga aytadilar. Do`stini yo`qotib, hajr azobidan qolgan shoh bundan bag`oyat shodlanib, do`stiga mehribonlik ko`rsatadi, uning yorini ham olib keltiradi, Jaypur va Balluni esa jazolaydi¹¹.

Keyingi hikoyatda Suhayl va Mehr haqida so`z boradi. Bunda ham Jobir timsolida elning boshiga falokatlar soladigan inson qiyofasidagi hayvonlar mavjud bo`lishi mumkinligi, bunday sharoitda hamkorlik katta ahamiyatga ega ekanligi, ahmoqona orzular yoki qiziqishlarni deb insonning asosiy vazifalardan chalg`ib qolishi halokatli voqealarni boshlab kelishi mumkinligi yorqin ifodalangan. Suhayl va Mehrning mardligi ulug`langan.

“Haft paykar” va «Sab`ai sayyor» faqat syujet va kompozitsion jihatdangina emas, balki she`riy san`atlarning ishlatilishi, tilining beqiyos darajada shiradorligi bilan ham «Xamsa»ning qolgan dostonlaridan qolishmaydi. Unda mumtoz badiiy san`atlarning hamma turlaridan misol topish mumkin. Undagi eng asosiy xususiyatlardan biri shuki, Nizomiy Bahromning shon-shavkatli, yetti iqlim podshohi sifatida tasvirlagan bo`lsa, Navoiy Bahrom kechinmalarini ko`tarinki ruh bilan, batafsil tasvirlaydi, bosh qahramonning ichki dunyosini keng ochib beradi. Shu singari Dilorom va ichki hikoyatlardagi go`zallarning tasviri, ulardagi nozik harakatlar, latif xislatlar nihoyat joziba bilan chizib berilgan.

⁹ Низомий Ганжавий, “Хамса”. Тошкент: “Истиклол нури”. 2016, 407-бет

¹⁰ Низомий Ганжавий, “Хамса”. Тошкент: “Истиклол нури”. 2016, 407-бет

¹¹ <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiyning-sabai-sayyor-dostoniga-bagishlangan-navoiyini-anglash-korsatuvi.html>

Shunday qilib, Bahrom Go‘r haqidagi syujet Firdavsiydan tortib Nizomiy va Xusrav Dehlaviy orqali Navoiygacha taraqqiy etib keldi. Syujet tadrijiy takomilida davr o‘tishi bilan bog‘liq tuzilish, voqealar rivoji o‘zgardi, shu bilan birga, syujet g‘oyalar, siyosiy-ijtimoiy, qarashlar takomilini o‘zida aks ettirdi. Bu esa har bir ijodkorning o‘z davr talabi bilan yuzaga kelgan, uning estetik qarashlarini taqazo etgan tamoyillardan kelib chiqishini bildiradi.

Alisher Navoiyning «Sab‘ayi sayyor» asari ulug‘ «Xamsa»ning tarkibiy qismi sifatida undagi qolgan to‘rt doston qatorida, bir tomondan o‘zbek dostonchiligiga, o‘zbek epik adabiyotiga qo‘shilgan katta hissa, yuksaklik sifatidagi shoh asarlaridan biri bo‘lsa, ikkinchi tomondan, Sharq adabiyotidagi dostonchilikni taraqqiy ettirishda ham muhim bosqich bo‘lib, uni yangi pog‘onaga ko‘targan asar hisoblanadi.

Xullas, har ikkala dostonda ham mardlik, yaxshilik, qahramonlik, halollik, ishq-muhabbat, elga foydali bo‘lish kabi fazilatlar ulug‘langanligini ko‘rishimiz mumkin. Aksincha esa, nomardlik, yovuzlik, qo‘rqoqlik, xarom ishlar bilan mashg‘ul bo‘lish, nafrat, xalqni qul kabi tutish kabi illatlar mazammat qilinadi.

«Sab‘ayi sayyor» Navoiydan keyin o‘zbek adabiyotida Bahrom Go‘r haqida yana bir qancha asarlar yaratilishiga turtki bo‘ldi, ularga bevosita ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. Bunga G‘aribiy, Sayqaliy va boshqa shoirlarning asarlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy, Sab‘ai sayyor, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyat matbaa uyi. Toshkent – 2006, 50-,51-betlar
2. Nizomiy Ganjaviy, “Xamsa”. Toshkent: “Istiqlol nuri”, 405, 407-betlar
3. С.Хасанов, Навоийнинг етти тухфаси, Тошкент: Фафур Ғулум номидаги нашр. Матбаа бирлашмаси. 1991.
4. <http://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/alisher-navoiyning-sabai-sayyor-dostoniga-bagishlangan-navoiyni-anglash-korsatuvi.html>